

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

A.QODIRIY NOMLI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Defektologiya kafedrası

MATEMATIKA O'QITISH MAXSUS METODIKASI

fanidan

KURS ISHI

**MAVZU: “YORDAMCHI MAKTABNING BOSHLANG'ICH SINFI
O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI TARKIB
TOPSHIRISH USULLARI”**

BAJARDI:

Mustafayeva Yulduz

301 guruh talabasi

RAHBAR:

o`qit Q. Nazarqosimov

J I Z Z A X – 2014

M U N D A R I J A

MAVZU: YORDAMCHI MAKTABNING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI TARKIB TOPSHIRISH USULLARI

Reja:

Kirish.....3-4

1. Yordamchi maktabning boshlang'ich sinflarida matematik savodxonlikni tarkib topshirishning pedagogik asoslari5-10

2. Yordamchi maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlikni tarkib topshirish usullari.....11-20

3. O'quvchilarni matematik savodxonlikka o'rgatishda olib boriladigan korreksion ishlar.....21-26

XULOSA.....27-28

ADABIYOTLAR RO'YXATI.....29-30

K I R I S H

Alohida yordamga muhtoj bolalarning talimi - tarbiyasi va reabilitatseyasi jarayonlarini islox qilib borish rivojlanish darajasidan qat'iy nazar har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir jumladan Respublikamizda nogironlarni ijtimoiy ximoyalash o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini farovon hayot asosini qurish deganidir" deya etirof etadi¹. Prezidentimizni sog'lom avlodni tarbiyasi to'g'risidagi bunday etirofi, kelajagimiz baxti, jamiyatimiz ko'rki, xalqimiz iftixori va g'ururimiz xisoblangan bolalarni har tomonlama kamolotga yetaklash.yetuk va mukammal inson qilib voyaga yetkazish ularni chinakam bilimli mehnatsevar vatanparvar yo'ksak etiqotli qilib tarbiyalashdan iborat ekan ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining Talim to'g'risidagi qonuni 23-modda qoida davlatimiz tomonidan 1992-yil rotifikasiya qilingan B.M.Tning "Bola huquqlari to'g'risidagi" konferensiyasi 23-moddada nogiron bolalarning Alohida parvarish talimdan foydalanish munosib turmush kechirish huquqlariga egaligi etirof etilgan.

O'zbekiston - bolajon yurt xalqimiz esa bolajon xalq, shu bois mustqilligimizning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi ratifakasiya qilgan ilk shartnomalardan biri aynan Bola huquqlari to'g'risidagi konvinsiya bo'ldi va buguncha kelib yurtimizga bolalarga har tomonlama g'amho'rlik, onalik va bolalikni muxofaza qilish sog'lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muxitni ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'targan.Ayni paytda bolalarga g'amho'rlik ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko'plab davlat tizimlari faoliyatining asosiy me'zonlari qatoridan o'rin olmoqda.

¹ I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" Toshkent Sharq nashrioti 1999 y.55 bet

Bu xususida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar ta'limda tenglikni amalga oshirish respublikamizdagi barcha bolalar uchun ta'lim olish kasbga yo'naltirish va kasb hunarga o'rgatishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari tomonidan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish, voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar bilan birgalikda, maxsus ta'lim muassasalarini zamon talablari asosida moddiy – texnik jihatdan yaxshilash, ta'lim vasiylik va hokimlik organlari faoliyatini takomillashtirish uyda yakka tartibda talim olayotgan nogiron bolalar uchun yitarli shart – sharoitlar yaratish ijtimoiy himoya muhtoj bolalarni kasb-hunarga yunaltirish ishlarini yanada takomillashtirish zarur.

Maxsus maktab, maktab internatidagi talim tarbiya jarayoni murakkab jarayon xisoblanib muassasa faoliyatining barcha jabhalarida olib boriluvchi Talim tarbiyaviy va korreksion jarayonda erishilgan darajalarni o'rganish va tahlil qilish hamda shu asosda faoliyatining aniq maqsadini belgilash va unga to'g'ri (munosib-samarali) yo'lni tanlashni mujassamlaydi.

1. YORDAMCHI MAKTABNING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI TARKIB TOPSHIRISHNING PEDOGOGIK ASOSLARI.

Matematikani o'qitish metodikasi aqli rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar psixologiyasi, o'qitish pedagogika fanlari bilan bog'liqdir. Matematika maxsus maktab o'quv fanlari ichida o'zining ilmiy, tuzatish imkoniyatlari jihatidan matematika fani barcha fanlardan ajralib turadi. Tamoyil (prinsip) deyilganda har qanday faoliyatda tayanish kerak bo'lgan holat tushiniladi.

Albatta didaktik tamoyillarni yordamchi maktabni barcha darslarida qo'llanilib boriladi. Didaktik tamoyillar har bir fanni o'qitish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amal qilinadi. Quyida yordamchi maktabning boshlang'ich sinflarida matematika darslarini o'tilishida didaktik tamoyillarni qo'llanilishi haqida to'xtalmoqchimiz.

Didaktika tamoyillari yoki o'qitish prinsiplari fan asoslarini o'qitishda tayanchdir. Ular o'qitishni barcha bosqichlarida barcha fanlar bo'yicha qo'llaniladigan umumiy nizom holatlaridan iboratdir. O'qitish tamoyillari o'qish jarayonida umumlashtirilgan, turg'un sezilarli, eng universal talablar component (mazmun, uslublar, tashkily shakllar)ning umumiy yo'nalishini belgilovchi tizimni tashkil etib o'quv bilim jarayonida o'qituvchi, o'quvchining birgalikdagi faoliyati bilan o'ziga hos.

Didaktik tamoyillar o'quvchilarning bilim faoliyati qonuniyatlarini o'qitish maqsadlari bilan o'zviy bog'langan.

Har bir fanni o'qitish asosi bo'yicha, shu jumladan matematikani o'qitish prinsipi hisoblanadi. Umum didaktik prinsiplarga quydagilar kiradi:

O'qitishning ilmiy asosdaligi

O'quvchilarga beriladigan barcha bilimlar ilmiy asoslangan va fanning aniq ma'lumotlariga tayangan bo'lishi kerak.

Psixojismonan rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitishda shu narsa muhim ahamiyatga egaki, ularning bilim darajalari ishlab chiqarishda, mayshiy xizmat va madaniyat sohalari bo'yicha oshadi. Ilmiy bilimlarni

o'qitishda aniqlangan yo'llarini shakllantirish, o'qitish usullarini qo'llash, o'quvchilarga ilmiy dalillar, tushunchalar to'plash va ularni mujassamlashtirish imkoniyatini beradi. Chunki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari ilmiy bilimlarni tez qabul qilavermaydilar, shuning uchun aqliy zaif o'quvchilarga berilayotgan ilmiy dalillar o'quvchilarning bilish faoliyatlariga mos keladigan tarzda berib borilishi lozim.

O'qitishning amaliyot va hayot bog'liqlik tamoyili.

Amaliyotdan uzilgan, hayot bilan bog'lanmagan, amaliy masalalarni hal etishda ishlatilmaydigan bilimlar o'quvchilar tomonidan yomon o'zlashtiriladi. Ular qiziqishini uyg'otmaydi, bilish faoliyatiga tasir ko'rsatmaydi va qo'zg'atmaydi.

Nazariya bilan amaliyotning bog'liqlik tamoyili o'quvchilarning bilim faoliyatini tashkil etuvchi holatdirki, unda ilmiy bilim sistemasini o'zlashtirish aqliy va amaliy bilim ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirish bilan bog'liqdir. Bu tamoyilning amalga oshirilishi o'quv ishlarining sifatini oshirishda fan asoslarini mustahkam va tushingan holda o'zlashtirish uchun kurashda asosiy vosita bo'lib qoladi. Aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalar matematikani juda qiyin o'zlashiradilar, shuning uchun bu toyifadagi bolalar uchun ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari hajimida bilim oladilar. Matematika abstrakt fan bo'lishiga qaramasdan u inson hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Bu asosan matematik masalalarni yechishda seziladi. Shuning uchun matematikani amaliyotda va hayotda ishlatilishini unutmaslik kerak va bolalarga matematika ilmini hayotga tarbig' etishni o'rgatib borish kerak. Nazariya va amaliyotni bog'liqligini shunday uslubiy yo'nalishlar yani yangi dalil va hodisalar, tushuntirish va boshqalarni taminlaydi.

Matematika darslarida aqli zaif o'quvchilarga nazariy bilimlarni berishda darslarni amaliyot bilan bog'liq holda o'tish o'quvchilarda matematik bilim va malakalarini shakllantirishda ijobiy yordam beradi.

Bu o'rinda dars jarayonlarida matematikaga oid didaktik o'yinlar va hayotiy misollarni qo'llash lozim.

Davomiylik va ketma-ketlik tamoyili

Berilayotgan bilimlar o'zlashtirilishi uchun ular nafaqat tushunarli bo'lishi, shu bilan birga tartiblangan va izchil ravishda (egallangan) bilimlar tizimiga qo'shilib borishi kerak. Matematika aniq fan ekanligi hammaga ma'lum, o'rgatishda davomiylik va ketma - ketlik saqlanishi kerak.

Davomiylik va ketma - ketlik tamoyili o'quv axborotining mazmunini bog'liq va o'zaro boyitib o'qitishini nazarda tutadi. O'qitishda bu prinsipni namoyon bo'lish dars va darslararo bog'liqlikni o'rnatishdan iborat bo'lib bilim olishda davomiylik shakillantirishda yordam beradi. Ketma - ketlik prinsipi namoyon bo'lishi shundaki, o'qishni tashkil qilishda dastur mavzusini tanlash va bayon etishda, usul va shakillarni qo'llashda aniqlikdan noaniqlikga, oddiydan murakkabga o'tish prinsipiga rioya qilinadi. Masalan: bolalarga 10.20 konsentriini tushuntirmay turib 100 konsentriini o'rgatish mumkin emas.

Davomiylik va ketma - ketlik tamoyilga asoslanib psixojismonan rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalar o'z faolyatlarini tejamli rejalashtirish (javob rejasi, uy vazifa bajarish tartibi, imlo - lug'aviy tahlil va xokozo) ko'nikmalarni xosil qilib boradilar. Davomiylik va ketma - ketlik tamoyili tufayliturli o'quv jarayoni qisimlarining (komponentlarining, yani maqsad va vazifalari) o'zaro davriy bog'liqligi ta'minlanadi va ularni dioliktik bog'liq va tobiyliklarida shaxsning xususiyatlari sifati, qoidalagi, bilim manbaining eng yuqori darajada shakillanishiga erishiladi. Bunda birdan o'ngacha, raqamlar, o'n birdan yigirmagacha, yigirma birdan o'ttizgacha, o'ttiz birdan qirqacha, 41-50gacha va 50 dan 100 gacha bo'lgan sonlar ketma - ket tanishtirilib o'quvchilarga bu sonlar bir-birini davomi ekanligi, har bir son ketma-ket tartib bilan kelishini tushuntirilib boriladi.

Ko'rgazmalilik tamoyili o'quvchining anglash yo'li aniq dalil va hodisalarni hissiy qabul qilishdan boshlanadi. Bu anglash manbai bo'gan buyum va hodisalar bilan bog'liq.

Bu esa o'rganishni jonli narsalarni mushohada qilishni talab etadi. Shundagina ko'rgazmalik prinsipi mushohada qilish kabi keng manoda tushuniladi va barcha sezgi azolarini ishtirokini taminlaydi. Ko'rgazmalik tamoyili bolaning anglash tajribasiga tayanishi taminlaydi, maktabning o'quv - tarbiya jarayonida bunday tajribani tashkil etishni nazarda tutadi. Ko'rgazmali qurollar yordamida o'tkazilgan dars keng samarali va o'quvchilar uchun manfaatli hisoblanadi. Psixojismonan rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalar uchun maktablarida ko'rgazma qurollar darsning asosiy elementi bo'libgina qolmay, o'quvchilar tomonidan u yoki bu matematik tushunchalarni o'zlashtirishda eng kerali tayanch hisoblanadi.

Bu maktablarda matematika darsida ko'rgazma qurollarning o'tkazilishi, vaqtini bekor o'tkazish demakdir. O'qitishda qo'llaniladigan qo'llanmalarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin:

a) pridmet obrazli ko'rgazma qo'llanmalari (butomlarning haqiqiy ko'rinishi, ularning yassi va hajmiy tasvirlash);

b) belgili ko'rgazma vositalari(shakillar, sxemalar, chizmalar, kartalar va xokozolar);

v) dinamik ko'rgazma qurollari (TSOdiofelimlari) so'z va ko'rgazmali qurollarining qanday bog'liqliklariga ko'ra ko'rgazmalarni qo'llashni bir nechi usulga ajratamiz.

1.Tasviriy, 2.Namoyishli, 3.Harakatli

Ko'rgazmali qurollarni tanlash va ularning sifati darsning maqsadi va mavzusiga o'qituvchilarning tayyorgarligi darajasiga bog'liq. Shuning yordamchi maktabning boshlang'ich sinflarini matematika darsliklarida qo'llaniladigan har bir ko'rgazma jihozlarini o'quvchilarni bilish faoliyatini hisobga olgan holda tayyorlanishi va dars jarayonlarida unumli foydalanishga e'tibor berish lozim.

Yordamchi maktablar matematika darslarida ta'limiy dedaktik prinsplar bilan birgalikda maxsus ta'limiy dedaktik prinsiplar qo'llanib boriladi.

Matematikani o`qitishda polisensorlik tamoyili

Polisensorlik-bu matematikani o`rgatishda barcha qolgan analizatorlarni qo`llashdir, ya'ni ko`rish va eshitish, teri bilan sezishdir. Saqlangan harakat analizatori o`quvchilarning pridmet amaliy faoliyatini tashkil etishda kompesatorlik vazifasini o`taydi, bunda o`quv jarayonini jadalligini oshirishga yordam beradi, o`quvchilarni mustaqil va faoliyatini tarbiyalaydi.

Mustaqilligini tarbiyalashning o`quv jarayonining darslarida nafaqat frontal yak mashg`ulotlar o`tkaziladi, balki bolalarning mustaqilligini rivojlantiriladigan, tashkilotchilik qobiliyatini shakllantiradigan guruh ishlaridan foydalaniladi. Polisensorlik tamoyiliga qudagi misolni keltiramiz. Jumladan yordamchi maktabning boshlang`ich sinf o`quvchilari barmoqlari orqali qo`lni qog`ozga kesma shaklda tayyorlangan raqamlarni ushlab ko`rishsa, ular qo`l sezgilari orqali ushbu raqamni yozish shaklini bilib olishadi. Chunki barmoqdagi sezgi hissiyoti bosh miyada ham aks etadi.

Matematik bilimlarni so`zlashuv nutqini rivojlantirish bilan birgalikdaegallash tamoyili.

Umumta'lim maktablarining o`quvchilari fan asoslarini eshitishi, saqlanishi, kattalari va tengqurlari bilan muloqotda bo`lish orqali o`zlashtirsalar, aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiligi bo`lgan bolalarda fan asoslari va so`zlashuv nutqini birgalikda egallaydilar.

Lug`at gramatikasining boshi fan asoslarini egallash jarayonini yengillashtiradi. O`quvchilarni keyinchalik ham asosli atamalar bilan lug`at boyligini ta'minlaydi, so`zlashuv takomillashtirishni kengaytiradi.

Matematika darslarida bolalarning so`zlashuv nutqiga ahamiyat berish kerak, ya'ni aqliy rivojlanishda muammosi bo`lgan bolalarda umuman aqliy rivojlanishga xizmat qilsin. Bu tamoyilni hayotga tadbqiq etishdagi muvoffaqiyatiga quyidagilar xizmat qiladi.

a) soʻz nutqini turli tumanligi, gapning tuzulishini (gramatik) rivojlantiruvchi mashqlar, umumtaʼlim fanlar boʻyicha darslar sintaksis tuzulmalarni boyitilishi;

b) dars ichida va darslararo asosida soʻzlashuv nutqida faol foydalanishni jadallashtirish;

v) izlanish faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlarni rivojlantirish.

Aqli zaif oʻquvchilarda matematika darslarida soʻzlashuv nutqini shakllantirish usullaridan biri dars jarayonida misoll va masalalarni yechishda yechish usullarini gapirish berish yoki oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarga oʻquvchilarni javob berish orqali ularda nutqiy muloqot soʻzlashuv malakalari lugʻat boyligi va nutqining umumiy rivojlanish malakalari shakllanib boradi.

Demak yuqorida yordamchi maktablarda matematika taʼlimi jarayonida dedaktik tamoyillarni qoʻllashni oʻziga xos tamoyillari haqida fikrlar yoritildi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, yordamchi maktabning boshlangʻich sinflarida dedaktik tamoyillari asosida oʻtish yordamchi maktab oʻquvchilari matematik bilim va malakalarni yetarli oʻzlashtirishlariga, ularda matematika darslarida misol va masalalarda matematik tushunchalarni shakllanishida umumiy yordam beradi.

Shuningdek daslarni oʻtilishida oʻqituvchi tomonidan didaktik tamoyillarga amal qilgan holarda oʻtishi darslarni samaradorligi olib, darslarda oʻquvchilarni darslarga qiziqtirish, faolligi oshib boradi, har bir oʻtilayotgan dars yordamchi maktab oʻquvchilarga matematika darslarida chuqurroq bilim berishga harakat qiladi. Buning uchun yordamchi maktabning boshlangʻich sinf oʻqituvchisidan pedagogik mahorat, oʻz ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Albatta bu borada boshlangʻich sinf oʻqituvchisi oʻz sinfidagihar bir oʻquvchini psixofizik xususiyatini, bilim faoliyatlarini hisobga olgan holda taʼlimiy didaktik prinsiplarni qoʻllab borishlari lozim.

2. YORDAMCHI MAKTABNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI TARKIB TOPSHIRISH.

Yordamchi maktab o'quvchilarida matematik tasavvurini rivojlantirish ularda matematik tushunchalarni shakllanishi, ular bilan bog'liq mantiqiy fikrlar natijasida bilim faoliyatida ro'y beradigan siljish va o'zgarishlarni tushunishlari lozim.

Yordamchi maktabni boshlang'ich sinflari o'quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish avvalo maqsadga yo'naltirilgan maxsus dasturda belgilangan o'qitish yo'li va jarayoni amalga oshiriladi. Bunday o'qitish jarayonida yordamchi maktab o'quvchilarini matematik tushunchalari miqdor, o'lchashlar, geometrik shakllar, fazoviy tasavvurlar haqida kerakli tushunchalarni o'rganib borishadi.

Yordamchi maktabni boshlang'ich sinfi o'quvchilarini matematik rivojlanishi ta'minlash uchun va bu bilan ularning aqliy tarbiyasi vazifalarini hal qilish uchun ularda matematik fikrlash omillarini shakllantirish, alohida bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini sensor jarayonlar, lug'at va bog'lanishli nutq, matematik tasavvur va tushunchalar shakllarini rivojlantirish zarur. Yordamchi maktab o'quvchilaridagi intellektual etishmovchiligi bo'lganligi sababli ularda idrokni sekinlashganligi bilan harakterlanadi. Eshitish va ko'rish diqqati hamda turli bilimlarga ko'ra jamlash va guruhlash oqsaydi. Bularning hammasi miqdor tushunchalari shakllanishini qiyinlashtiradi, ko'rish yoki eshitish idroki orqali hisobni amalga oshirishga yetarli imkon bermaydi. Natijada o'quvchilar matematik tushunchalarni o'zlashtirishda xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Albatta boshlang'ich sinfi o'quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish ishlari 1-sinfdan olib boriladi. O'quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariy tushuntirish va amaliy ko'rsatish bilan birgalikda olib boriladi.

Chunki aqli zaif bolalarda fikrlashning tarqoqligi, idrokning yetishmasligi, ularda ko'rgazma obrazga tayanganligi sabadir. Agarda aqli zaif bolalarga dars jarayonlarida ko'rgazmalilik asosida tushunchalar berib borilsa, qisman bo'lsa ham ularda tushunchalar hosil bo'lib boradi.

Yordamchi maktabning 1-sinf o'quvchlarida narsalarning katta-kichikligi haqida tushuncha va tasavvurlarni shakillantirish ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materialini hamda bolaning tevarak-atrofdagi narsalar bilan u kunda duch keladigan vaziyatni puxta ajratishni talab qiladi.

U yoki bu tushunchalarni shakillantirish ustidagi birinchi darslar uchun didaktik materiallar, narsalar ular bir-biridan faqat bitta belgi bilan farq qiladigan qilib tanlanishi lozim. Masalan narsalarni uzunlik belgisini shakllantrishda lenta, qog'oz tasmalari va hokozoni shunday tanlash kerakki, ular faqat uzunligi bilan farqlanib, boshqa hamma belgilari ya'ni eni, materiali, rangi bir xilda bo'lishi kerak. Ko'rgazma materialini bunday tanlash. Muhim belgilar bilan muhim bo'lmagan belgiarni aralashtirmasligining oldini oladi. Keyingi darslar uchun bir-biridan ikkita, so'ng uchta belgilar bilan farqlanadigan narsalar tanlanadi. Masalan bitta lenta uchun va ensizroq boshqa lenta esa qisqa va enliroq.

O'quvchilarni narsalarni yonma-yon yoki bir-birining ustiga qo'yib taqoslashga o'rgatish juda muxim. O'qituvchi bir lintaning ustiga ikkinchisini qo'yib, ularning uchlarini birlashtirishni so'raydi. O'qituvchini o'zi buni o'quvchilarga ko'rsatadi. Hamma o'quvchilar oldin kuzatib, keyin o'zlari narsalar bilan bir nechabor takrorlab bajargandan so'ng, o'quvchilar qaysi linta uzun ekanligini bilib olishadi. SHu tariqa olib borilgan ishlar natijasiga ko'ra o'quchilarda narsalarni uzun, qisqa, enli, ensizhaqida tushuncha va tasavvurlar shakillanib boradi. Yordamchi maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarida pridetlarning massasi bo'yiga ham tushunchalar yetarli emas, buning uchun bolalarning muskuliy sezgilarini rivojlantishga imkon beradigan mashiqalarni uyushtirish kerak.

O'quvchilar boshida narsalarning massasini muskiliy sezgilari orqali farqlab natijada tushunchalar oladilar og'ir yengil, og'irroq yengilroq.

O'qituvchi darsga birshakilda 2ta savatchani olib kirib, savatni biriga 1ta olmani ikkinchisiga esa ko'proq olmalarni solib ko'rsatish mumkin. Bunda birinchi sinf o'quvchilari har bir savatni ko'tarib ko'rishi lozim. O'quvchilar savatchalarni og'irligini taqoslab ko'rishgandan so'ng ularda og'ir yengil, og'irroq yengilroq degan tushunchalar shakillanadi. Albatta bunday mashqlar boshqa predmetlar bilan ham olib borilgan mashqlar asosida shakillanib boriladi.

Yordamchi maktabning 1sinflari uchun matematika darsligini ko'zdan kechirganimizda kata-kichik, kattaroq - kichikroq bir hil kattalikda baland-past, balandroq - pastroq, bir xil balandlikda keng - tor, enli-ensiz bir kenglikda, qalin - yupqa, yug'on - engichka, bir xil uzun - qisqa, uzunroq - qisqaroq bir xil uzunlikda ko'p - oz, ko'p - bitta, ozroq - bir nechta, yaqin - uzoq, o'ngda-chapda, yonida - oldida, o'rtada - ostida, yonida - ustida, og'ir - yengil, og'irroq - yengilroq kabi tushunchalarni shakillantirish uchun turli xil didaktik rasimlardan foydalanib, yangi dars jarayonlarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi unumli foydalanib, o'quvchilarga yetarli bilim va tushuncha yetqazib borsa, 1sinf o'quvchilarida o'sha ko'rsatilgan rasimlardagi tasvirlar asosida matematik tushunchalar shakillanib borish mumkin. Matematika darsligida berilgan tasvirlar asosida 1-sinf o'quvchilarida predmetlarning massasi, fazoviy tasavurlari, miqdoriy tasavurlar va tushunchalarni rivojlantirib shakillantirilib boriladi, ularni hammasi bolalarga tayyorgarlik davrida o'rgatilib boriladi.

O'quvchilarda tushunchalarni shakillantirish har bir ko'rsatigan rasimli tasvirlar asosida amaliy mashqlar o'tkazilib borilishi va bu amaliy mashqlarda o'qituvchi 1-sinf o'quvchilarini faolligini ta'minlab borishi lozim.

Yordamchi maktabning 1-sinf o'quvchilarida birinchi o'nlik haqidagi bilim va masalanni shakillantirish, amallar bajarish birinchi o'quv yili davomida o'rgatib boriladi.

O'quvchilar birinchi o'nlikdagi har bir son bilan alohida tanishadigan birinchi sinfga kelgan aqli zaif bolalarda son, chanoq tushunchasi va natural qatorning xususiyatlari ustida tasavurlarni tarkib toptirish masalasi juda murakkabdir.


Uni ko'rgazma vositalardan keng foydalanish yordamida har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini, uning oldingi tajribasini, birinchi o'nlik sonlarni o'rganishda o'quvchilar oldida kelib chiqqan umumiy va shaxsiy qiyinchiliklarni hisobga olgan taqdirdagina hal qilish mumkin.

Yordamchi matabning 1-sinf o'quvchilarida qo'shish-ayirush va tenglik ishoralarini o'rgatish va ushbu matematik ishoralar to'g'risida tushuncha xosil qilish bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilarga qo'shish, ayirish va tenglik ishoralari haqida tushuncha hosil qilishda didaktik ko'rgazmalardan foydalanish mumkin.

O'quvchiga agar bir narsa oldiga yana bir narsa kelsa, yoki keltirilsa narsalar soni qo'shiladi deb tushuntiriladi. Masalan mushukni oldiga yana bir mushuk kelib qo'shilsa 2ta mushuk bo'ladi, bunda nasalar soni qo'shilgani tushuntiriladi "+" ishorasi bilan ifodalanishi o'rgatiladi o'quvchilariga "+" ishoralarni yozilishi, qo'llanilishi haqida tushuncha beriladi. Agar ikki narsadan biri olinsa, ketib qolsa yoki olib ishlatilsa, u haqda ikki narsadan biri ayriladi deb tushuntirish lozim. Masalan bir gulcha 2 ta asalari qo'ndi, bir ozdan keyin asalarilarni biri kelib qoldi. Shunda nechta ari qolgani so'raladi.

Bunda o'quvchilarga 2ta asalaridan biri uchib ketgani yani ayrilganini tushuntirish yoki yana bir misol asosida tushuntirish 2ta sharni ishirib ko'rsatish, bir ozdan sharlarni biridan havo chiqarilib shunda bitta shar qolgani aytiladi. Bunda o'quvchilarga narsalarni kamayishi, yoki ayrilishi amali bajarilishi ekan lekin tushuntirish "-" shorasi haqida tushuncha berib, uni daftarlariga yozdirish, hamda shu ayirish va ishorasi asosida oddiy misollar yechish masalasini shakillantirish lozim.

O'quvchilarga "+" va "-" ishoralarini shakllantirishda har bir darslarda kichik va sodda misollar asosida o'rgatib boriladi, shu tariqa 1-sinf o'quvchilarida qo'shish va ayirish ishoralari haqidagi tushunchalar shakllanib boriladi. Boshlang'ich sinfning 1-sinfida birinchi o'nlikdagi har bir sonni o'rgatish quyidagi tartibda olib boriladi: birinchi darsda son va raqam ustida tushuncha beriladi. Bu darsning maqsadi – o'quvchilarning sonni xosil qilish (o'zidan oldingi songa birni qo'shish yo'li bilan). Sonning qanday atalishi, uni raqam bilan belgilash, raqamni yozishga o'rgatish sonni sonlar qatoridan qanday o'rin egallashini mustahkamlaydilar sonni hosil qilishning ikkinchi usuli ustuda tushuncha oladilar (o'zidan keyingi sondan birni ayirish bilan), to'g'ri va teskari tartibda sanashni mashq qiladilar. Sonlar o'rtasidagi teng, tengsizlik xaqidagi tushunchalar oladilar. Darslar davomida 1-sinf o'quvchilariga sonni hosil bo'lishi haqida ham tushuncha berib boriladi. Masalan 4 sonini hosil bo'lishini tushuntirishda 3 ta bargni ko'rsatib, bu yerda nechta sariq barg bor, qani sana deb aytiladi o'quvchilar sanab 3ta sariq barg bor deyishadi shunda yana bitta qizil bargni qo'shsak nechta barg bo'ladi deb so'raladi. Bolalarga 4 ta barg qanday hosil bo'lganini tushuntirilib, bu yerda 4 sonini hosil bo'lishi haqida tushuncha beriladi. O'quvchilar har bir sonlarni hosil bo'lishini shu tariqa darslar jarayonida didaktik materiallar asosida tushuntirilib ko'nikma va malakalar hosil qilib boriladi. Yordamchi maktabning 1-sinflaridan o'quvchilarga nuqta, chiziq xaqida ham tushunchaga berib boriladi. Bunda daftarga o'qituvchi tomonidan qalam bilan nuqta belgilab beriladi. Belgilangan nuqtadan chiziqlar chizish o'rgatiladi.



Ushbu berilgan nuqtalardan chiziqlarni chizish orqali o'quvchilarda chiziqlar va nuqtalar haqida tushunchalarni shakllantirib boriladi. Yordamchi maktabning 1-sinf o'quvchilarga sanoq cho'plardan sanashni o'rgatish, shuningdek ushbu sanoq cho'plarda foydalangan holda turli xil shakllar yasash orqali ularda elementar tarzda geometrik shakllar haqidagi bilim va malakalar, tushunchalar shakllantirilib boriladi. Albatta bu ishlar darslar davomida amalga oshirilib boriladi.

1-sinf o'quvchilariga birinchi o'nlik haqidagi bilim va malaka shakllantirish davomida qo'shish va ayirish amalga oid misollar masalalar yechish malakasi shakllantirib boriladi. O'quvchilarda birinchi qo'shiluvchi, ikkinchi qo'shiluvchi, yig'ndi haqidagi matematik tushuncha shakllantirilib boriladi. SHuningdek kamayuvchi, ayiriluvchi va ayirma haqidagi matematik tushunchalar haqida ham va malakalar xosil qilinadi.


Bu tushunchalar misollar, yechish asosida mustahkamlanib boriladi.

Yordamchi maktabning 2-sinfda 1-sinfda o'rganilgan matematik bilim masalalar tushunchalar mustahkamlanib boriladi. Shuningdek 2-sinfda 20 ichida bir xonali sonlarning atalishi va ketma - ketligi haqidagi bilim va malakalardan shakllantirib boriladi.

2-sinfdan boshlab 2 xonali sonlar 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, sonlari xosil bo'lishi ushbu sonlarga oid misollar yechish haqidagi bilim va malakalar berib boriladi. SHuningdek uzunlik o'lchovlari, santimetr, metr haqidagi tushunchalar beriladi.

Jumladan uzunlik, kenglik, balandlik, metr, detsimetr va santimetr bilan o'lchanishi tushintirilib, ushbu tushunchalar amaliy ishlar orqali o'quvchilarda mustahkamlanib boriladi. Albatta bu kerakli jihozlardan unumli foydalanib borish lozim.

Yordamchi maktabning 2-sinfida o'quvchilarga bo'lganlar haqida tushuncha berilib boriladi. Bunda bo'lganni uchi, tomonlari haqida geometrik tushunchalar shakllantirib boriladi. O'quvchilarga ushbu burchak shakllari chizish malakasi ham o'rgatib boriladi.



Shuningdek o'quvchilarga burchaklarni solishtirib o'tkir va o'tmas burchak haqida ham tushunchalar beriladi. 2-sinfda o'quvchilarga masala tuzish ushbu masalalarni sharti asosida yechish haqida tushunchalar ham berib boriladi. Masalalarni shartini o'quvchilar tezda tushunavermaydi, yoki qiyinchilik bilan tushiniladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga kerakli jihozlar asosida, masala shartlarini tushuntirib borish lozim.

Shuningdek 2-sinfda doira, kvadrat, uchburchak haqida shuning SM DM kabi ishoralar haqida tushunchalar beriladi. Ushbu tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarga yetarli tushunchalarni berib borish talab etiladi. O'quvchilarga vaqt berish sutka haqida ham tushuncha beriladi vaqt berishga oid misol, masalalar yechish orqali o'quvchilarda vaqt tushunchasi mustaxkamlanib boriladi.

20 ichidagi sonlar xaqidagi tushunchalarni mustaxkamlash uchun 20 gacha 2 talab sanash 20 sonidan 2 tadan kamayib borish sanash usullari o'rgatilib boriladi va shu usulda sanash o'quvchilarda shakllantiradi. Shu bilan o'quvchilarga to'rtlab, beshtalab sanash malakasi ham o'rgatilib boriladi. 2-sinf davomida o'quvchilarda 20 ichida misol masalalar yechish, qo'shish va ayirish amallariga oid tushunchalar geometrik shakillar haqidagi bilim va malakalar tushunchalar o'quvchilarda o'quv yili davomida shakllantirib boriladi.

1 M.Saidaliyeva, F.Muzaffarova "Yordamchi maktabda matematika o'qitish maxsus dasturi" Respublika ta'lim markazi 2009y 3-9 bet

2 M.Soatov "Yordamchi maktabda matematika o'qitish uslubyati" 1993y 68-74 bet

3 M.Jumaboyeva "Alohida yordamga muhtoj bolalar koriksiya pedagogikasining o'rni Toshkent 2009y 13-14bet.

Shuningdek 2-sinfda o'quvchilarga o'nliklar va birliklar haqida ham tushunchalar berilad. Buni sanoq cho'pdan foydalangan holda tushuntirish mumkin. O'qituvchi bir qo'lga yani chap qo'lga o'nta sanoq cho'pi olib o'quvchilarga ko'rsatib o'nta cho'p ekanligi aytadi yani o'nlik ekanligi, so'ngra bitta cho'pni olib, qo'shsak nechta bo'lishini so'raydi 11 deb o'quvchilar javob berishadi. Bunda o'qituvchi o'nlikka bitta birlikni qo'shdek deb izohlab beradi. Demak o'qituvchi o'quvchilarga ushbu misol asosida 10 ta cho'pni o'nlik bo'lishini, bitta qo'shilgan cho'p birlikni tashkil etishini tushuntirishi mumkin.

SHu tarzda bitta o'nlikka 2ta, 3ta, 4ta va hokozo cho'plarni qo'shib berish asosida o'nlik va birlik xona birliklari haqida tushuncha hosil qilinadi.

Yordamchi maktabning 3-sinfidan boshlab o'quvchilarga 100 ichida qo'shish va ayirish amali bo'yicha misol va masalalar yechish tushunchalari shakllantirib boriladi. Shuningdek 100 ichida nomirlashni o'rganishda o'quvchilar xona jadvali bilan tanishadilar.

3 – son yuzlar	2- xona o`nlar	1 – xona birlar
1	1	3
	2	5
	0	0

O'qituvchi o'quvchilarni yangi atama “xona soni” so'zi bilan tushuntiradi birliklar birinchi xonaga tegishli ular sonidan o'ngdan birinchi o'ringa yoziladi, o'nliklar ikkinchi xonaga tegishli, o'ngdan ikkinchi xonaga yoziladi, yuzliklar esa uchinchi xonaga tegishli, o'ngdan uchinchi xonaga yoziladi. Ushbu xona birliklari haqida o'quvchilarga shu tarizdagi misollar asosida tushunchalari mustaxkamlanib boriladi.

Yordamchi maktabni 3-sinfidan boshlab ko'paytirish va bo'lish amali bo'yicha misollar, masalalar yechish asosida tushuncha va malakalar shakllantirilib boriladi. O'quvchilarga ko'paytirish amalini o'rgatishda 20-ichida 2,3,4,5talab sanash asosida tushuntirish mumkin. Masalan:

$$2+2+2+2+2+2+2=6.2=12$$

$$4+4+4+4+4=4.5=20$$

$$3+3+3+3+3+3=3.6=18$$

$$5+5+5+5=5.4=20$$


Ko'paytirish ishorasini(.) haqida tushuncha beriladi. Bunda qo'shiluvchilarni, qo'shiluvchilarni soniga ko'paytirish orqali o'quvchilarda ko'paytirish amali haqida tushuncha berilib boradi. Bo'lish amalini o'rgatishda ham berilgan misollar, ditaktik ko'rgazmalar asosida o'rgatilib boriladi. Masalan:

$$2:2=1 \quad 4:2=2 \quad 6:2=3 \quad 8:2=4 \dots\dots 20:2=10$$

Bo'lish ishorasi (:) haqida o'quvchilarga, qo'llash usullari tushuntiriladi.

O'quvchilarga ko'paytirish va bo'lish amali birgalikda o'rgatilib boriladi. Bu amallarga oid misollar va masalalar yechish yordami maktab o'quvchilarda ancha qiyinchilik to'g'riadi. Shuning uchun o'quvchilarga bu borada tushuncha berishda o'quvchilarni bilish xususiyatlarini hisobga olgan holda yetarli ishlar olib borilishi lozim. Tushuntirishda hayotiy misollar, o'quvchilarni tushunadigan holatlarda tushunchalar berib, ko'nikma va malakalar shakllantirilib boriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi ko'paytirish va bo'lish jadvalini o'rgatib, ularda bu to'g'risida tushuncha hosil qilish lozim.



Boshlang'ich 3-4 sinf o'quvchilarda ko'paytirish va bo'lish amaliga oid misollar va masalalar yechish malakalari shakllantirib borish orqali ularning bilish faoliyati rivojlantirilib boriladi. Ayniqsa bu borada o'quvchilarga karra jadvalini ongli ravishda o'lashtirib olishga erishishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf xonalariga karra jadvalini chiqarib qo'yish maqsadga muvofiq ishlardan biri hisoblanadi.

Yordamchi maktabning 3-4 sinflarida geometrik shakllar, burchaklar, to'rtburchak, aylana, uzunlik, og'irlik birliklari va boshqa matematik, geometrik tushunchalar shakllantirilib boriladi. Albatta o'quvchilar bu matematik va geometrik tushunchalarni matematik egallab borishda o'quv darsligida berilgan talimiy materiallarni o'qituvchining yordami asosida o'zlashtirilib borishlari orqali erishib boradilar shu tariqa o'quvchilarda matematik bilim va malakalar shakllanib ularning bilish faolyatlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lib boradi.

3. O'QUVCHILARNI MATEMATIK SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

Aqli zaif bolalarni o'quv faoliyatini rivoltirishda korreksion ishlar alohida o'ringa va ahamiyatga egadir. Hozirgi payta yordamchi maktab o'quvchilari bilan har bir darsda korreksion ishlarni olib borish muximligi isbotlangan. Bunda asosiy diqqatni bolaning turli hil bolalar faoliyatiga qaratilgan fikrlarni rivojlantirishga qaratish lozim. Maxsus atrof-muxit bilan tanishtirish darslari, matematik tasavurlarni shakillantirish ham shular jumlasidandir. Korreksion ishlarni boshlang'ich bosqichlarida aqli zaif bolada fikrlashning ko'rgazmali shakillaridan foydalanib borish kerak.

Korreksion ishda faoliyatning har hil turlariga tayanib maxsus ta'limiy usul va usullardan foydalanish; qiziqarli didaktik o'yinlar, ta'limiy ko'rgazmalar, va boshqa usullarda foydalangan holda ish olib borish lozim. Albatta yordamchi maktabni boshlang'ich sinflarida darslarda korreksion ishlarni olib borishda o'quvchilarni bilim faoliyati, ruhiy rivojlanishi, fikriy diqqati, hotirasi kabi tomonlardagi nuqsonlarni hisobga olib borish muhimdir. Aqli zaif o'quvchi bilan korreksion ishlarni olib borish ancha qiyin ish. Bolaning nuqsonligi qanday bo'lishdan qat'iy nazar unga o'qituvchi oddiy, tabiiy munosabatda bo'lish kerak. Shuningdek o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi-defektolog; logoped, shifokor, psixolog vaota-ona bilan hamkorlikda ishlash lozim. Demak boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika darslarda o'quvchilardagi nuqsonlikni bartaraf etish, darslarda samarali o'zlashtirish uchun ta'lim jarayonida hamkorlik ishini yo'lga qo'yib borish asosiy ishlardan biri hisoblanadi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy; rivojlantiruvchi korreksion ishlarning asosiy vazifasi aqli zaif boladi turli xil nuqsonlarni tuzatish, o'tilayotgan darslarni iloji boricha toliq o'zlashtirishga erishgan holda, savodxonlikni yaxshilash, ularda yozish, o'qish, hisoblash malakalari bo'yicha ko'nikma hosil qilishga erishish.

Bu ishda yordamchi maktabni har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan alohida e'tiborni, o'zi o'tayotgan darslarga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchi o'tilayotgan har bir darsni qiziqarli, o'quvchilarni turli xil xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tishga harakat qilish lozim. Demak yordamchi maktabning boshlang'ich sinf o'qiyuvchisi maymatika darslarini o'tishda metodik matematik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Metodik-matematik tayyorgarlik deyilganda, biz uni ilmiy dunyo kurashi asosida matematik o'qitish metodikasi bo'yicha umumiy psixologik- pedagogik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasini matematikadan boshlang'ich talim sohasida malum bilim va o'quvchilarni egallash va o'quvchilarni bu o'qitish orqali tarbiyalashi, o'zlashtirishi kiradi. O'quvchilarni matematik bilimlarni egallashi uchun darslar jarayonida turli hil talimiy usullardan foydalanishni taqqozo qiladi.

Yordamchi maktabni boshlang'ich sinf o'qiyuvchilarini aqliy rivojlanish hususiyatlaridan kelib chiqqan holda matematika darslarida savodxonlikni egallashlarida har bir darsda korreksion talimiy rivojlantiruvchi ishlarni olib borish zarur. Dars davomida koriksion ishlarni olib borish maqsadli, rejali asosida olib boriladi. Hattoki boshlang'ich sinf o'quvchisi kundalik dars rejasi tuzish va yozishda albatda olib boriladigan koriksion ishni kiritgan holda, dars davomida qo'llashi lozim. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida koriksion tarbiyaviy ishlar 1-sinfdan boshlab olib boriladi.


Jumladan 1-sinfdan raqamlarni bilish va bu to'g'risida ko'nikma malaka hosil qilish uchun quydagi koriksion ishlarni dars davomid qo'lash mumkin.

1. Kesma shakilda berilgan 1dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni tartibsiz holdan tartibli holatga keltirish. Masalan: 10, 8, 2, 7, 3, 5, 4, 1, 6, 9. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10.

2. Kesma raqamlarni to'g'ri va teskari qo'yib sanash vazifasi beriladi.

3. O'quvchilarda geometrik shakillar haqida tushuncha hosil qilishda quyidagi koriksion ishni olib borish mumkin.

Har hil o'lchamdagi 3ta ko'pdan uchburchak yasash.



Yordamchi maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash idrokni yetarli emasligi bazi matematik topshiriqlarni qiyinchilik bilan bajaradilar. Ayniqsa raqamlarni o'z o'rnida aytish, qo'llash ularda qiyinroq shuning uchun o'quvchilardagi bu kamchiliklarni tuzatib borish uchun quyidagi korriksion ishlarni olib borish mumkin.

Ushbu kataklarni raqamlar bilan to'ldirish yani tushurib qoldirilgan sonlarni qo'yib sanash va yozdirish

1		3		5		7		9	
---	--	---	--	---	--	---	--	---	--

10		8		6		4		2	
----	--	---	--	---	--	---	--	---	--

1-sinflarda

1			4			7			10		12			15
---	--	--	---	--	--	---	--	--	----	--	----	--	--	----

15			12		10		8		6		4			1
----	--	--	----	--	----	--	---	--	---	--	---	--	--	---

2-sinflarda

Ushbu korriksion ish sinfdagi sanashni to'liq bilmaydigan, raqamlarni o'rnini almashtirib yuboradigan o'quvchilar bilan olib borilsa o'quvchilarda raqamlar to'g'risidagi bilimlari mustaxkamlanadi.

O'quvchilarda qo'shish amalini mustahkamlash uchun quyidagi bo'sh kataklarni to'ldirish asosida hisoblashni o'rgatish.

5	2	
	5	
		6

Yig'indi 10

	3	
		4
1		3

Yig'indi 9

	9		6
4			
		8	

Yig'indi 20

12			14
	8		
6		10	

Yig'indi 30

Ushbu koriksion-talimiy ishda o'quvchilarda nomalum sonlar toppish, ularni o'rniga qo'yish malakasi mustahkamlanib borila.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'tishda, ularda raqamlar, geometrig shakillar misollar yechish malakalarini shakillantirishda polisinsorlik prinsipi yoki tamoyilida foydalanish orqali korriksion ish olib borish mumkin. Bunda o'quvchilarda ko'rish, eshitish, sezish bilan birgalikda teri sezgilari yani barmoq sezgilari orqali o'quvchilarni matematik savodxonligini oshirish mumkin. Teri sezgilari orqali o'rgatishda quyidagi ko'rgazmali jihozlardan foydalangan holda korriksion ish olib borish mumkin. Korriksion ish uchun jihozlar qumli qog'ozdan tayyorlanadi. Bunda qumli qog'ozdan raqamlarni kesma shakillari qirqib tayyorlanadi. Tayyorlanayotgan kesma shakli yozma shakilda tayyorlanishi kerak.


Misollar yechilish ko'rinishlari ham qumli qog'ozdan tayyorlanishi mumkin. Shuningdek o'quvchilarda geometrik shakillar bilan tanishtirishda, ularda bu sohada ko'nikma va malakani shakillantirishda qumli qog'ozdan turli hil geometrig shakillar yani uchburchaklar, burchaklar, to'rtburchaklar, kvadrat, doira, aylana kabilarni tayyorlanadi.

Ushbu tayyorlangan geometrig shakillar ustidan o'quvchilar barmoqlarini yurg'izib ko'rishgandan so'ng o'quvchilarda geometrik shakillar to'g'risida tishuncha hosil bo'lishi mumkin.

Qumli qog'ozdan tayyorlangan har bir ko'rgazma jihoz ustidan yordamchi maktabni boshlang'ich sinf o'quvchisi barmoqlari bilan yani raqamlar, misollarni yechilish ko'rinishi, geometik shakillar, qo'shish (+) ayirish (-) ko'paytirish (*) bo'lish (:) amallarini ishoralarini ko'rinishlari ustidan, shuningdek kata- kichik, teng ">","<" (=) ishoralarini barmoq sezish orqali his qilish bunda har bir his qilingan belgi, shakillarni ko'rinish aksi bosh miyada aks etadi.

Shu tariqa o'quvchilarda matematik savodxonlik bo'yicha bilim malakalari bilish faoliyatida mustahkamlanib boriladi. Yuqorida aytilgan ko'rgazmalarni boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ish faoliyatida qo'lab, dars jarayonida foydalanilib borilsa o'quvchilarni matematik savodxonlikni egallashlarida ijobiy natijalar berishi mumkin.

Shuningdek o'quvchilarga raqamlarni o'gatishta qo'l terisiga yoki o'quvchini yelka qismiga o'sha o'rgatayotgan raqamini o'qituvchi tomonidan yozish orqali. Bunday usulda o'rgatishni sinfdagi o'quvchilar o'zaro bajarish orqali ham raqamlarni o'rganishlari mumkin. Boshlang'ich sinflarda misollar yechish malakasini mustahkamlashda, quyidagi korreksion ish usulidan foydalanish mumkin.



Bu ko'rinishdagi ko'rgazmali jihozni o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni matematik savodxonliklarini hisobga olgan holda tarqatish material sifatida ham foydalanish mumkin.

Yordamchi maktabda matematika darslarida didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarda korreksion talimini rivojlantirish ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarda o'quvchilar fikrlashning asosiy jarayonlari tahlil, taqqoslash, hulosalar chiqarish va hokozalar rivojlantiriladi.

Yordamchi maktabning boshlang'ich sinflarida o'qitish jarayonida didaktik o'yinlar o'rgatish maqsadlarida o'ylab topiladi, o'quvchilarni o'qitish ularda matematik bilim va malakalarni mustahkamlash, tarbiyalash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar vaqtida paydo bo'ladigan ijobiy to'g'ri, bolalar faoliyatini faollashtiradi. O'yinda o'quvchilar o'zlari payqamagan holda juda matematik amallarni bajaradilar, sanashni mashq qiladilar, masalalar yechishni o'rganadilar.

Yordamchi maktabni matematika darslarida o'quvchilarning miqdoriy, fazoviy va vaqt tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida quyidagi didaktik o'yinlardan boshlang'ich sinf o'qituvchilar foydalanib borishlari mumkin.

Albatta bu o'yinlar hammaga ma'lum bo'lib, bu o'yinlarga quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin. "Qiziqarli hisob", "Tirik raqamlar", "Arifmetik lot", "Doiraviy misollar", "Zinacha", "Do'kon" va boshqa o'yinlar shular jumlasidandir.

Didaktik o'yinlarni o'tkazish uslubiyati o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi. Darsda o'tkazilayotgan didaktik o'yinlar mazmuni o'quvchilarga yetkaza olinganda, ijobiy kattalik berish mumkin.

Shuning uchun o'tkazilayotgan har bir didaktik o'yinlar o'quvchilarni bilish faoliyatlarini hisobga olingan holda o'tkazilib ularda matematik bilim va malakalarni shakllantirishda fikrlashdagi idrok etishdagi hotirasidagi passivlik holatlarini korreksionlash tuzatishga xizmat qilish lozim.

X U L O S A

Demak yuqorida aytmagan fikirlardan kelib chiqqan holda yordamchi maktabning boshlang'ich sinflarida o'quvchilarda matematik savodxonlikni shakillantirishda va olib boriladigan korriksion ishlarni tahlil qilishda boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'z ishiga ancha mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini yoritishda o'rganilgan manbalar, maxsus maktab internatdagi pedagogik amaliyot jarayonida yordamchi maktab o'quvchilarini bilish faoliyati, ularni savodxonlikni egallashda o'ziga xos xususiyatlar bilan yaqindan tanishdim. Shulardan kelib chiqqan holda yordamchi maktab o'quvchilarda matematik savodxonlikni shakillantirishda bir qator qiyinchilik, muammolar borligi ma'lum bo'ldi.

Yordamchi maktabni boshlang'ich sinf o'quvchilarda matematik savodxonlikni egallashda raqamlarni tartib bilan sanay olishmaydi.

Sanashda raqamlarni tushurib qoldiradi ya'ni raqamlar tartibini bilishmaydi. Matematik yozuv malakasi ham yetarli emas, raqamlarni yozishda aniqlik yetishmaydi.

Ushbu bitiruv ishini yoritishda o'rganilgan manbalar pedagogik amaliyot davomida yordamchi maktab o'quv jarayonlari bilan tanishib, olingan bilim va malakalar va hulosalar asosida quyidagi tafsialarni berishni lozim topdik.

Yordamchi maktabni har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi aqliy tomondan imkoniyati cheklangan bolalarni aqliy va jismoniy rivojlanishi xususiyatlari to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda matematik savodxonligini egallash va imkoniyatlarini o'rganish.

O'quvchilarni matematik savodxonligini egallash qobiliyatlari va imkoniyatlarini o'rganish.

-O'quvchilarni matematik savodxonligini egallashda qiyinchilik va muomolarini yechishni to'g'ri chora tadbirlarni belgilab olish.

-O'quvchilarda matematik raqamlarni yozishni shakllantirish polisinsorlik (kup sezgi organlar ishtiroki) tamoyildan foydalanish.

-Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida raqamlarni yozishda muamosi bo'lgan o'quvchilarda qumli qog'ozda tayyorlangan raqamlar yozuvi orqali matematik yozuv malakasini shakllantirish lozim.

- Boshlang'ich sinfni har bir matematika darslarida past o'zlashiruvchi o'quvchilar bilan bilish faoliyatini hisobga olgan holda individual korriksion-talimiy ishlar olib borish.

- Yordamchi maktabni boshlang'ich sinf o'quvchilarni bilim faoliyatini xususidan hamda diqqat ko'lamini torligini hisobga olib darsga oid ko'rgazmali jihozlardan o'z o'rnida foydalanib borish.

- Yordamchi maktabni o'quvchilarni matematik savodxonligini shakllantirishda o'qtuvchi har bir darsni o'tishda o'quvchilarning bilim faoliyatini tuzatish, va rivojlantirishga, yunaltirish faoliyatini rivojlantirishga qaratilga bo'lishi lozim.

-Har bir darsni o'tishda vaqtdan unimli foydalanish darsda vaqt taqsimotini tahlil qilish dars bosqichlari bir biri bilan bog'liq holda olib borish lozim.

- Yordamchi maktab o'quvchilarini orasida nutqiy faoliyatda nuqsonlar bo'lganligi uchun dars jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarining nutqini o'stirishga ravon gapirishga e'tibor berish va aniq va ravon gapirishni talab etib borishi kerak.

- Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z sinfidagi o'quvchilar huquqlariga nisbatan hurmat bilan qarash ularga mehr qo'yish e'tiborli bo'lish bu o'quvchilarning talim tarbiyasiga masul ekanligini unutmasligini va doimo yodda tutishi lozim.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak yordamchi maktabni har bir darsida, yani har bir talimiy vatarbiyaviy jarayonda yordamchi maktab o'quvchilari bilan ishlashda o'quvchilarga bilim berish,tarbiya va ular bilan koriksion ish olib uzviy bog'liq hamda olib borilishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi“ Toshkent sharq nashiryoti 1999.
2. I.A.Karimov “Manaviy yuksalish yo'lida” Toshkent 1998.
3. I.A.Karimov “Yuksak manaviyat yengilmas kuch“Toshkent Manaviyat 2008.
4. I.A.Karimov “Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyatining poydevori(O'zbekiston oliy majlisini IX sessiyasida so'zlagan nutqi)” Toshkent1997.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011 yil.
6. Yangi talim qonuni Toshkent1997.
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Toshkent1997.
8. K.Mamidov, M.Soatova, P.Po'latova Oligiofeniopedagogika asoslari Toshkent.O'qituvchi 1994.
9. M.Po'latova Maxsus pedagogika Toshkent 2005.
10. S.Ayitmetova “Yordamchi maktab o'quvchilarining psihik rivojlanish xususiyatlari Toshkent 1984.
11. M.I.Sagatov Yordamchi maktabda matematika o'qitish uslubi Toshkent.O'qituvchi 1994.
12. T.Vlasiva M.Tevzner Kamol topishda kamchiliklari bo'lgan bolalar haqida Toshkent.O'qituvchi 1976.
13. G.M.Do'lonov A.R.Lo'riya Prinsip otbora dete vo vspomogatelne shkole Moskva Proivisini1973.
14. U.Fayziyeva J.Fozilov korriksion pedagogika masalalari Toshkent 2009.
15. V.S.Raxmonova Defektologiya va logopediya asoslari Toshkent.O'qituvchi 1991.
16. N.Jumaboyeva Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'limda korriksion pedagogikasining o'rni. Toshkent 2009.

17.G. M.Dulnev korriksionaril abuchinya vo vispomagatilnoy shikoli pedagogika Moskiva 1971

18.M.Saidaliyeva F.muzaffarova N.CHipligina Yordamchi maktabda matematika o'qitishni maxsus dasturi respublika talim markazi.2009.

19.V.G.Petrova Praktichiskaya ullitvennaya deyatelnost detey Oligofrenov Praevveshinni Moskiva 1968.

20. G. M.Dulnev Uchibno vaspetatilnaya rabota ve vepamochatelnoy shikoli Praevveshinni Moskiva 1981.

21.Maxsus talim uslubyati to'plami (YUNESKO uslubyat to'plami)2002.

22.Inklyuzif sinflarda o'quvchilar ehtiyotlarini anglash va extiyotlarini qondirish (YUNESKO tomonidan o'qtuvchilar uchun qo'llanma) 1999. YUNESKO yordami.

23.M.Toxirova J.Azimova Matematika darsligi (1-sinf)2007.yordamchi maktab bilan.

24. M.Tochirova J.Azimova Matematika darsligi 2-sinf uchun 2007.

25. M.Tochirova J.Azimova Matematika darsligi (yordamchi maktab 3-sinf uchun 2007.

26. A.Axatov F.Muzaffarova M.Saidaliyeva Matematika darsligi (yordamchi maktab 4-sinf uchun 2007.